

# 2025-yil – “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” IJODIY PARVOZ




O'ZBEKISTON DAVLAT  
SAN'AT VA MADANIYAT  
INSTITUTINING MA'NAVIY-MA'RIFIY,  
ILMIY, IJTIMOIIY GAZETASI

2025-yil oktabr № 10 (149) [dsmi.uz](https://dsmi.uz) [nashriyot@dsmi.uz](mailto:nashriyot@dsmi.uz) [t.me/dsmi\\_uz](https://t.me/dsmi_uz)

So'zdurki, nishon berur o'lukka jondin,  
So'zdurki, berur jonga xabar jonondin.  
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhari sharifroq, yo'q ondin.

ALISHER NAVOIY



## MADANIY TARAQQIYOTGA XIZMAT QILUVCHI MASKAN

O'zbekistonning madaniyat va san'at sohasi jadal rivojlanib borar ekan, ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan pedagoglarning malakasini oshirish va ularning zamonaviy tendensiyalarga mos ravishda qayta tayyorlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzurida Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu muassasa respublika bo'ylab minglab malakali mutaxassislarni tayyorlashda yetakchi o'rin tutmoqda. Markaz madaniyat va san'at yo'nalishida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, metodistlar va mutaxassislar uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil etib, ularning kasbiy mahoratini oshirishga yo'naltirilgan. Markazning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat.

1. Madaniyat va san'at sohasidagi pedagoglarning malakasini oshirish – zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar hamda yangi o'quv dasturlarini amaliyotga joriy qilish orqali ta'lim sifatini oshirish.

2. Ijodiy va ilmiy salohiyatni rivojlantirish – pedagoglarga zamonaviy san'at va madaniyatning rivojlantirish tendensiyalarini o'rganish imkoniyatini yaratish, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar bilan tajriba almashish va malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish.

Davomi 4-betda ➡



O'zbekiston davlat  
san'at va madaniyat  
instituti rektori,  
professor  
Nodirbek Sayfullayev  
va Ozarbayjon davlat  
madaniyat va san'at  
universiteti rektori,  
professor  
Jeyran Mahmudova

## Maqom – mug'om sarchashmalari

Maqom san'ati nafaqat vatanimizda, balki o'zga ellarda o'zbek san'ati shaydolarining ham qalblarini maftun etib kelayotganligi bizning faxrimizdir. Ma'lumki, O'zbekiston Ozarbayjon xalqi bilan azaldan yaqin qardosh bo'lib, barcha musiqiy janrlarini cheksiz hurmat ila yuksak darajada e'tirof etib kelganlar. Shu bois, o'tmishdan bugunga qadar ozarbayjonliklar bilan qator madaniy aloqalar amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjon Respublikasiga qilgan tashrifida diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish borasida bir necha hujjatlar imzolandi. Shu bilan birga, madaniy tadbirlarni tashkillashtirish, markazlar ochish, Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarini o'zaro tajriba almashuv ishlarini ham samarali yo'lga qo'yildi.

2025-yil 1-iyulda Xiva shahrida o'tkazilgan Birinchi O'zbekiston-Ozarbayjon parlamentlararo forumi “Yangi imkoniyatlar sari: muloqotdan birgalikdagi harakatlarga” mavzusiga bag'ishlanganligi ham ushbu ikki millatning hamkorligi nechog'lik ahamiyatli ekanligini anglatadi. “Bu

tadbir faqatgina parlamentlararo uchrashuv emas, balki ikki tomonlama munosabatlar tarixida muhim bosqichdir. Ishonchim komilki, mazkur forum do'stlik va birodarlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi, ochiq va konstruktiv muloqot maydoni hamdir”, – deydi O'zbekiston Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva.

2009-yildan buyon Ozarbayjon Respublikasi poytaxti Boku shahrida Mehribonxonim Aliyeva tashabbusi hamda Haydar Aliyev jamg'armasi ko'magida o'tkazib kelinayotgan “Mug'om olami” an'anaviy Xalqaro maqom festivalida o'zbek elining sohir ovoz sohiblari bo'lmish san'atkorlarimizning chiqishlari munosib taqdirlanib kelinayotganligi ham fikrimizning dalilidir.



Davomi 4-betda ➡

Bugungi  
sonda:

### TIL – MILLATNING MADANIY QIYOFASI

Agar biron-bir xorijlik bizni tilimizda biron so'z yoki jumla aytib qolsa, naqadar xursand bo'lamiz, quvonchimizni yashirmay, yosh boladek shodlanib ketamiz. Yoki xorijda yurganingizda o'zbek tilida gapirgan kishini ko'rib qolsangiz bormi, borib quchib olgungiz keladi. Axir bu ham tilimizga bo'lgan behad muhabbatning nishonasi emasmi?

2 ➡

### USTOZSIZ KAMOL TOPMAS INSON

Ustoz, murabbiy, o'qituvchi – bu so'zlarni eshitganimiz sari ko'z oldimizda ma'suliyatli kasb egalari, yillar davomida o'quvchi hamda talabalarga bilim berib ko'zidan nuri ketgan, sochlariga oq oralagan insonlar gavdalarnadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, bu kasb egalarini boshqacha hurmat qilishadi, e'zozlashadi.

3 ➡

### MILLIY MADANIYAT: o'tmishdan ibrat, bugundan g'urur, ertaga ishonch

Madaniy diplomatiya – bu so'zsiz til, u millatlarning yuragidan joy olgan qadriyatlarini, urf-odatlarini, san'at va ijod nafosatini dunyo sahnasiga olib chiqadi.

5 ➡

### TONG YULDUZINING ZULMATGA ISYONI

*Ketgan yo'lim to'g'ri yo'ldir, ketaman,  
Qanday to'siq mone bo'lsa, o'taman:  
Men ketaman, tilak deya ketaman,  
Hech tilaksiz quruq tanni netaman?*

Cho'lponning tilagi nima edi? Yurtining mustaqilligi, xalqining ozodligi va jamiyati taraqqiy etib, johiliyatdan chiqishi emasmidi?!

7 ➡



ZUMINISO KOZIMOVA,  
“O'zbek va jahon filologiyasi”  
kafedrasi dotsenti

# TIL — MILLATNING MADANIY QIYOFASI

Til haqida turli davrlardan buyon turli fikrlar bildirib kelingan. Albatta, ularning barchasi ijobiy va ezgu. Yagona haqiqat shuki, til benihoya muqaddas va mo'tabar. Bejizga tilni ona tili demaymiz. Tilimiz onamizdan eshitgan allamiz bilan birga ongimizga, shuurimizga singgan, tomirimizdagi qon bilan birga vujudimizga o'rnashgan. U insonni shakllantirgan, taraqqiyot sari yetaklagan, ilm ne'matlarini in'om etgan, dunyoni aql nuri bilan tanitgan, tafakkur darvozalarini ochgan vositadir.

Til — onamizdek aziz, otamizdek qadrli, dunyoda borligimiz, birligimiz nishonidir. Shunday ekan, tilni sevmay, ardoqlamay bo'ladimi? Tilsiz millatligimiz ham, jamiyatligimiz ham, hatto insonligimiz ham tamoman bitadi, yo'qlikka yuz tutadi. Bugunga kelib, dunyoda yetti mingdan ziyod til iste'molda bo'lsa, bir kunda bir necha tillar o'lik tilga aylanib bormoqda. Har bir millat tilining taraqqiyoti kabi kechmishi ham bir xil emas, albatta. Tarix sahifalariga nazar tashlasak, o'zbek tili ne-ne talotumlardan omon qoldi, dovonlarni bosib o'tdi, bo'ronlarga bardosh berdi. Axir til millatning ruhi, uning oynayi hayoti demakdir. O'zbek xalqining metin irodasi kabi tili ham har qanday zulmlardan, tahdidlardan, qirg'inlardan omon qoldi.

Qadimiy ajdodlarimiz bilan yonma-yon umr kechirgan qardosh pahlaviy, sug'd, parfiyon, qibtiy, o'rxun, sanskrit tillarining kechmishi barchamizga ma'lum. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida: “...uch nav' tildurkim, asl va mo'tabardur... Ammo turkiy va fors va hindiy asl tillarning mansha'idur”, deydi. “Man-sha'i” so'zi “kelib chiqish joyi”, “boshlanishi” ma'nosini bildirishini e'tiborga oladigan bo'lsak, bizning ona tilimiz qadim va juda ko'p tillar uchun asos bo'lgan boy tildir. Buni Alisher Navoiy o'zi o'sha davrdayoq, turkiy tilda go'zal “Xamsa” yozib, yana bir bor isbotladi.

Tilimizning bugungi rivoji va jahon tillari orasidagi mavqeyi uchun shukronalar aytamiz va faxrlanamiz.

Tilimizning bugunga qadar omon-eson kelishining boisi, xalqimizning o'z ona tilini jonidan sevishi, ardoqlashidadir. Zotan, tilshunos olim, buyuk ajdodimiz Mahmud Qoshg'ariy aytganidek: **“Xudo davlat quyoshini turklar burjida yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk deb atadi... Bularga yaqin bo'lish uchun eng asosiy yo'l — ularning tillarida so'zlashishdir, chunki ular bu tilda so'zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o'zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular til tufayli o'z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar”**. Yoki “Boburnoma”ning Farg'ona viloyati ta'rifida o'qiyimiz: **“Eli turkdir. Shahar aholisi va bozorga keluvchilardan turkiyni bilmaydigan kishi yo'q. Elining tili adabiy tilga muvofiq...”** Bundan ming yil oldin aytilgan Mahmud Qoshg'ariyning hamda olti yuz yil oldingi madaniy hayotni aks ettirgan yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, xalqimiz azal-azaldan ona tilimizni muqaddas bilib, ardoqlab kelgan. Agar biron-bir xorijlik bizni tilimizda biron so'z yoki jumla aytib qolsa, naqadar xursand bo'lamiz, quvonchimizni yashirmay, yosh boladek shodlanib ketamiz. Yoki xorijda yurganingizda o'zbek tilida gapirgan kishini ko'rib qolsangiz bormi, borib quchib olgingiz keladi. Axir bu ham tilimizga bo'lgan behad muhabbatning nishonasi emasmi?

Xalqimiz hamma davrlarda ham o'z

tili bilan birga o'zga tillarni bilishga, o'rganishga intilgan, katta rag'bat bildirgan. O'zga tillarni bilishda bizning ajdodlarimizdan o'tadigani bo'lmagan deb, bemalol faxr bilan ayta olamiz. Misol uchun, Abu Nasr Farobiy bobomiz yetmishga yaqin tilni bilgan bo'lsa, Abulqosim Az-Zamaxshariy bobomiz arab tili grammatikasini tadqiq qilib, bu tilning fonetikasi va morfologiyasiga bag'ishlab, “Al-Mufasssal” asarini, “Qur'oni Karim” tafsiriga bag'ishlab, “Al-Kashshof” asarlarini yozgan. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy bobolarimiz ham o'z ilmiy asarlarini arab tilida yaratganlar. Alisher Navoiy esa, “forsiy tilini mendan o'tkazib biladigan kishi yo'qtur”, deya faxrlanadi. Avaz O'tar yoshlarni ko'p tillarni o'rganishga chorlab: **“Lozim siza har tilni biluv ona tilidek, Bil-makka oni g'ayrat eting foida kon-dur”**, deydi. Ammo boshqa tilni o'rganish o'z ona tilini buzib gapirish, birini ikkinchisidan kamsitish evaziga bo'lmashligi kerak. Inson o'z ona tilida o'ylaydi, fikrlaydi, ona tilida tush ko'radi, ona tilida bolasiga alla aytadi, ona tilida quvonchini bildiradi yoki yig'laydi. Umri, hayoti, g'am-tashvishlari, xursandchiligi hamma-hammasi qulog'iga onasining mayin ovozi bilan kirgan tilida mujassam bo'ladi. Shunday ekan, o'z tilini mukammal o'rganmaslik, unga hurmat ko'rsatmaslik, qadrlamaslik insoniy tuyg'ulardan ham mahrum bo'lish demakdir.

Bugun ota-onalarimiz xorijiy tillarni o'rgatish uchun farzandlarini qo'shimcha mashg'ulotlarga beryaptilar-u, ammo ona tilida ravon gapira olmasa, xat-savodi o'z tilida yaxshi

bo'lmasa, bundan tashvishlanmayaptilar. Sof o'zbek oilalarda o'z ona tilini bilmaydigan farzand o'stirayotgan ota-onalar *“ingliz yoki rus tilini ona tilidan yaxshiroq bilish jamiyat, davlat talabi”*, deb o'zini oqlashga urinayotganlariga javoban: Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga asosan, *“2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”* qabul qilinganligining o'ziyoq davlat siyosati darajasida tilimizga bo'lgan katta e'tibor va qo'llab-quvvatlashning belgisidir, deya olamiz.

Ma'rifatparvar olim Abdurauf Fitrat bundan yuz yil oldin: **“Dunyoning eng boy, eng baxtsiz tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha!”** degan edi. Darhaqiqat, Fitrat ham tilimizning baxtsizligini uning sofligini yo'qolishida, boshqa tillarga o'z tilidan ko'proq rag'bat ko'rsatilishida, unga bepisandlarcha munosabatda bo'linishida ko'rmaganmidi? Nega kimdir onamizni haqorat qilsa, yoqa bo'g'ishishga tayyormiz-u, ona tilimizni kamsitishsa, parvo qilmaymiz? Nega ota-onamiz qo'ygan ismimizni xato aytishsa, jahlimiz chiqadi, ammo tilimizni buzib gapirishsa, e'tibor bermaymiz? Nega yo'l qoidasini buzganlardan jarima undiramiz, tilimizni buzayotganlarga jarima belgilamaymiz? Yo'l qoidasini buzgan, nari borsa, bir, ikki kishiga ziyon yetkazishi mumkin, ammo tilni buzayotganlar butun bir xalqni halokat yoqasiga olib borib qo'yishi mumkinligini o'ylamaymiz.

Til — mamlakatning mustaqillik belgisi, jamiyatning ma'naviy chegarasi, millatning madaniy qiyofasi. Shunday ekan, tilga bo'lgan e'tiborni faqat “Til bayrami” kunlarida emas, har kuni, har daqiqada kuchaytirishimiz, faqatgina so'zlarimizga emas, xayolimizda tug'ilgan fikrlarimizning ham ona tilimizda sof va ravon bo'lishiga diqqatli bo'lishimiz lozim.

# USTOZSIZ KAMOL TOPMAS INSON

Biz bugun kim bo'lishimizdan qat'iy nazar – olimmi, shoirmi, muhandismi yoki san'atkor, ustoz oldida qarzodormiz. Ustoz bizga faqat dars bergani uchun emas, hayotning eng oddiy haqiqatlarini sabr bilan o'rgatgani, biz ishonmaganimizda ishonch bergani, yiqilganimizda qo'limizdan tutib, to'g'ri yo'l ko'rsatgani uchun ulug'dir. Uning har bir sabog'i biz uchun poydevor, har bir ogohlik bilan aytilgan gaplari, biz uchun yo'l chirog'i bo'ladi, albatta. Zotan, ota farzandlarini voyaga yetkazadi, ustoz esa yuzlab, minglab qalblarni kamolotga yetkazadi. Ana shunday buyuk zotni ulug'lash, ularning mehnatini qadrlash, jamiyatda ustozlik maqomini yuksaltirish har birimizning insoniy burchimizdir.



Inson kamolotga eltuvchi yo'lda doim bir nurga, bir yo'l ko'rsatuvchiga muhtoj bo'ladi. Zotan, tug'ilgan bolaning ilk qadamlarida uni qo'lidan tutib, to'g'ri yo'lga boshlovchi ota-ona bo'lsa, ma'naviy voyaga yetishida, tafakkur parvozida qanot bo'ladigan inson – ustozdir. Ustoz insonni qalban uyg'otadi, fikrlashga o'rgatadi, ko'rmayotgan haqiqatlarini ko'rsatadi. U yuraklarga umid, ongga nur, hayotga ma'no olib kiradi. Dunyodagi eng og'ir, eng mas'uliyatli, eng sharaflilik kasblardan biri ustozlikdir.

Ustoz, murabbiy, o'qituvchi – bu so'zlarni eshitganimiz sari ko'z oldimizda mas'uliyatli kasb egalari, yillar davomida o'quvchi hamda talabalarga bilim berib ko'zidan nuri ketgan, sochlariga oq oralagan insonlar gavdalanadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, bu kasb egalari boshqacha hurmat qilishadi, e'zozlashadi. Ustozlarimiz – bizning otamizdek ulug', chunki ular bizga hayot yo'lida hamroh bo'ladilar. Ustozlik maqomi nafaqat kasb, balki yuksak mas'uliyatdir. Ular bizni tarbiyalab, har birimizni ma'naviy va ilmiy jihatdan yuksaltirishga intiladilar. Har bir ustozga tashakkur, chunki ular bizning kelajagimizga yo'l ochish uchun o'zlarini bag'ishlaydilar. Ustozlarimizni hurmat qilish, ularning mehnatlarini qadrlash esa, bizning burchimizdir.

Ustoz deganda, har qaysi inson ko'nglida chuqur hurmat, ehtirom va cheksiz minnatdorlik tuyg'ulari, shu bilan birga, hech qanday boylik bilan o'lchab va ado qilib bo'lmaydigan qarzodormlik hissi paydo bo'ladi. Ustozlarimiz o'giti, keksalarimiz pand-nasihatlariga amal qilib borsak, aslo kam bo'lmaymiz. Bu bilan ustoz va murabbiylarimiz oldidagi ilk burchimizni ado etgan bo'lamiz. Inson avvalo, unga bilim va ma'rifat dunyosi sari yo'l ochib bergan, uning qalbiga yuksak insoniy fazilatlar hissini singdirish yo'lida zahmat chekkan ustoz va murabbiylariga nisbatan ko'nglida hamisha minnatdorlik tuyg'usi bilan yashaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bu yilgi "O'qituvchi va murabbiylar kuni" umumxalq bayrami munosabati bilan yurtimizdagi barcha muhtaram ustoz va murabbiylarga yo'llagan bayram tabrigida: "Siz, azizlarni, hayotini dunyodagi eng ulug' va olijanob ishga – navqiron avlod ta'lim-tarbiyasiga bag'ishlagan muhtaram ustoz va murabbiylar, sohaning barcha jonkuyar xodimlarini umumxalq bayrami – O'qituvchi va murabbiylar kuni bi-

lan samimiy muborakbod etaman. Mana shunday quvonchli kunda siz, mehribon ustozlarga el-yurtimizning yuksak hurmat-ehtiromini yana bir bor izhor etib, barchangizga Yangi O'zbekiston kelajagini yaratish yo'lidagi mashaqqatli va sharaflilik mehnatingiz uchun chin qalbdan tashakkur bildiraman", – deya ta'kidladilar.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarni amaliyotga tatbiq etib kelayotgan, jonkuyar insonlardan biri, mening ustozim, "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasida dotsenti Mo'minmirzo Xolmo'minov 2014–2018-yillar mazkur institutning "Madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish" yo'nalishining bakalavr, 2018–2020-yillar mobaynida "Madaniyatshunoslik" mutaxassisligining magistratura bo'limida tahsil oladi. Tashkilotchilik salohiyatiga ega Mo'minmirzo Xolmo'minov mehnat faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi Ijodiy birlashmalar va xalq ijodiyotini ilmiy-metodik ta'minlash bo'limi Xalq ijodiyotini ilmiy-metodik ta'minlash shobasi bosh mutaxassisi (2018–2020) mazkur tashkilotning Muzeylar, madaniyat va istirohat bog'lari, madaniyat markazlari faoliyatini ilmiy-metodik ta'minlash bo'limi boshlig'i, keyinchalik bosh mutaxassisi (2020–2021) kabi lavozimlarda faoliyat yuritadi.

Pedagogik faoliyatini 2021-yil 6-sentabrdan O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" kafedrasida boshlaydi. Mo'minmirzo Xolmo'minov mehnatkashligi, izlanuvchanligi bilan jamoada hurmat qozondi. Kamtarligi, bilimdonligi bilan biz talabalarining mehr-muhabbatiga sazovor bo'ldi.

Xalqimizda: "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar", degan hikmatli naql bor. Ustozimning ustozlari, dotsent Vahobjon Rustamov hamda siyosiy fanlar nomzodi, marhum Azamat Haydarovning pand-nasihat va maslahatlari bilan hayot va ilm o'chog'ida anchayin toblandi. O'qituvchining yuragi bir tarang tortilgan torga o'xshaydi. Bir shogirdning muvaffaqiyatidan chertilib, nafis bir kuyga aylanadi. Shukur, hozirgi kunda Mo'minmirzo Xolmo'minov "Ustoz" degan oliy maqomga erishdi. Shogirdlari doimo u haqida zavqlanib so'zlaydilar.

Mo'minmirzo Xolmo'minov nafaqat dars beruvchi ustoz, balki madaniyat va san'at sohasining rivojiga o'zining muhim ilmiy

hissasini qo'shib kelayotgan yetuk mutaxassisdir. Ustozning ilmiy faoliyati ham hayotdagi ustozlik idealiga mos keladi, u nafaqat nazariy bilimlarni o'rgatadi, balki amaliyot bilan boyitilgan, zamonaviy va xalqimizning milliy qadriyatlarini yuksaltiruvchi ilmiy kitoblar yaratdi.

Ustoz yozgan "Milliy madaniyat – Renaissance poydevori" nomli kitobi o'zbek madaniyatining boy merosini zamonaviy dunyoqarashlari bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan chuqur ilmiy-tahliliy tadqiqotdir. Ushbu kitob yosh avlod uchun milliy ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, "Madaniyat va san'at muassasalari xodimlarining malakasini oshirish dasturi" ustozning boshqaruv va ta'lim sohasidagi tajribasi natijasida shakllangan bo'lib, u madaniyat muassasalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun amaliy qo'llanma vazifasini o'taydi. Bu dastur zamonaviy boshqaruv usullarini milliy an'analar bilan uyg'unlashtirib, sohaning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Ustozning yana bir muhim "San'at va madaniyat sohasini zamonaviy boshqaruv usullari" va "Xodimlarni boshqarish" kabi o'quv adabiyotlari madaniyat sohasidagi rahbarlar uchun yaratilgan bilim manbayi bo'lib, zamonaviy menejment printsiplari bilan an'anaviy qadriyatlarni bog'laydi. Ushbu kitoblar orqali nafaqat nazariy bilim, balki boshqaruvda yuzaga keladigan real muammolar va ularni hal qilish yo'llarini ham ochib berilgan. Shuningdek, "Ommaviy tadbirlar menejmenti" nomli o'quv qo'llanmasi ustozning madaniyatni keng jamoatchilikka yetkazish borasidagi tajribasi va bilimlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, madaniyat va san'at sohasidagi tadbirlarni muvaffaqiyatli tashkil etish, ular orqali jamoatchilikda madaniyatga bo'lgan qiziqishni oshirish va milliy qadriyatlarni targ'ib qilishga xizmat qiladi.

Mo'minmirzo ustoz yozgan barcha ilmiy-amaliy o'quv adabiyotlari va maqolalari nafaqat institutimiz talabalarining, balki mamlakatimizdagi madaniyat va san'at sohasi mutaxassislarining bilim darajasini oshirish, sohani yanada rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy poydevor hisoblanadi. Ustozning ushbu mehnatlari orqali, madaniyat va san'at sohasining yangi avlod vakillari faqat mustaqil fikr-

**Biz shogirdlar, ustozimiz Mo'minmirzo Xolmo'minovga ushbu mashaqqatli va sharaflilik yo'lda hormang, – deymiz. Pedagogik faoliyatida, ilmiy-ijodiy izlanishlarida bardavom muvaffaqiyatlar, sog'lik hamda ilhom va mehrga to'la umr tilaymiz.**

**BAXTIYOR SAMIYEV,**  
**Madaniyat va san'at**  
**muassasalari faoliyatini**  
**tashkil etish hamda**  
**boshqarish ta'lim**  
**yo'nalishi**  
**4-bosqich talabasi,**  
**"Islom Karimov nomidagi**  
**davlat stipendiyasi" sohibi**

lashni o'rganibgina qolmay, balki zamonaviy boshqaruv va menejment usullarini mukammal egallab, amaliyotda qo'llay olishadi.

O'tgan o'quv yillari mobaynida ustozning ilmiy rahbarligi ostida institutimizning 2 nafar talaba qizlari: Nilufar Maratova va Asal Xayriddinova Prezident stipendiyasini qo'lga kiritdilar. "Meni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilib, sohamizni rivojlantirishga oid bilim va ko'nikmalarni o'rgatganliklari uchun, ustozim Mo'minmirzo Xolmo'minovdan qarzodorm", – deydi N.Maratova.

Mo'minmirzo ustoz nafaqat bilim va mahorat sohibi, balki ustozlik sharaflilik bilan birga, jamoatchilik orasida o'zining mehmondo'stligi, samimiyligi va odamiyligi bilan ham ajralib turadi. Bu mehr-oqibat, chin insoniylik – ustozlikning eng go'zal ifodasi. Ustozimning qadrdon do'stlari, hamfikir hamkasblari, bizning yana bir hurmatli ustozimiz Aslbek Qolqanatov bilan suhbatimizda, quyidagi aytgan so'zlari meni diqqatimni tortdi: "Mo'minmirzo Xolmo'minov kasbining fidoyi insoni". Ushbu birgina jumla – yillar davomida qilina-yotgan halol mehnat, chin yurakdan o'tilgan har bir dars, fidokorona yozilgan kitoblar, talabalar qalbiga singgan ezguliklar, ustozlik mas'uliyatining har kunlik og'ir-yengilini zimmasiga olish kabi ulkan hayot yo'lining qisqacha, ammo sarmazmun ifodasi edi. Aslbek Qolqanatovning bu so'zlari nafaqat do'stona e'tirof, balki ayni haqiqatdir. Chunki Mo'minmirzo Xolmo'minov ustozlikni shunchaki kasb emas, yashash tarziga aylantirgan inson. U o'z kasbini jonidan ortiq sevadi. Har bir darsga mas'uliyat bilan yondashadi, har bir talabaga alohida e'tibor beradi, har bir ilmiy maqolani chin yurakdan yozadi.

Mo'minmirzo Xolmo'minov ustozlik yo'lida to'xtab qolmaydi, o'z ustida doim ishlaydi, yangilik izlaydi, boshqalarga namuna bo'la oladi. Aynan shuning uchun ham hamkasblari, do'stlari uni nafaqat bir soha mutaxassisi, balki kasbining fidoyisi deb tan oladilar. Aslbek Qolqanatovning ushbu so'zlari ustozimizga berilgan yuksak baho bo'lishi bilan birga, biz shogirdlar uchun ham o'ziga xos mas'uliyatdir. Chunki biz bilamiz: fidoyi ustoz qo'lida tarbiyalangan shogird ham, albatta, fidoyi bo'lishi kerak. Darhaqiqat, Mo'minmirzo Xolmo'minov nafaqat o'zining, balki boshqalarning hayotini ham yengillatishga harakat qiladigan, qo'lidan kelganicha yaxshilik ulashadigan, ko'ngil bilan yashaydigan inson. Farzandlari uchun g'amxo'r ota, umr yo'ldoshi uchun vafodor yor, ota-onasi uchun mehribon farzand, do'stlari uchun esa doimo tayanch bo'lishni uddalayotgan ustoz chinakam havas qilgulik inson. Shu bois, ustozlik va olimlik degan ulug' martabaga munosib ravishda, biz, shogirdlari, u kishining fidokorona mehnatlarini yuksak qadrlaymiz. Ustozimizdan nafaqat ilm va saboq olish, balki hayotni to'g'ri tushunish, jamiyatga foydali bo'lish yo'lida katta maktab demakdir. Zero, u bizga ustozlik faqat dars o'tish emasligini, balki ibrat bo'lish, tarbiyali inson bo'lish san'atini o'rgatayпти.

# Maqom – mug'om sarchashmalari

◀ Boshlanishi 1- betda

Qayd etish joizki, 2008-yil “Shashmaqom” YUNESKO tomonidan “Insoniyatning nomoddiy madaniy meros durdonasi”, – deya e'tirof etilib, representativ ro'yxatga kiritilgan edi. Ushbu yili Ozarboyjon mug'omi ham mana shu ro'yxatdan mustahkam o'rin oladi.

Ma'lumki, atoqli maqom ijrochisi akademik Yunus Rajabiyning ijodiy yondashuvi asosida Ozarbayjonning sevimli shoiri Fuzuliy g'azallari o'zbek maqomlarida ham keng qo'llanilgan. Jumladan, Rost maqomida – “Savti Ushshoq”, “Qashqarchai Savti Sabo”, Navo maqomida – “Savti Navo”, “Bayot”, “Bayoti Sheroziy IV”, Dugoh maqomida – “Oraz”, “Qashqarchai Mo'g'ulchai Dugoh”, Iroq maqomida – “Muhayyari Iroq”da uning g'azallari maromiga yetkazib kuylanganligining guvohi bo'lamiz.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ikki davlat o'rtasida keng islohotlarni amalga oshirish, do'stlik va madaniy hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash va o'zaro tajriba almashish maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining rektori, professor Nodirbek Sayfullayev boshchiligidagi “Milliy qo'shiqchilik” va “Cholg'u ijrochiligi” kafedrasining bir guruh ustoz san'atkorlari 7–11-oktyabr kunlari Ozarbayjon Respublikasiga tashrif buyurdilar. Institut rahbari hamda professor-o'qituvchilari Boku shahrida Ozarbayjonning milliy-ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolish va millat madaniyatini butun dunyoga targ'ib qilish maqsadida tashkil etilgan Xalqaro Mug'om markazi, Ozarbayjon



yo'lga qo'ygan mashhur kompozitor Uzeir Hojibekov uy muzeyida bo'lib, uning hayoti va ijodi, milliy musiqa rivojiga qo'shgan hissasi bilan tanishdilar. Shundan so'ng Mug'om markazi direktori Sahib Pashazade bilan uchrachuv o'tkazdilar va ijodiy hamkorlik borasida o'zaro fikr almashdilar. Sahib Pashazade mehmonlarni markazning tarixi, xalqaro ahamiyati, mug'om san'atini yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan turli loyihalar, bugungi kunga qadar markazning erishgan yutuqlari, zamonaviy texnik jihozlari, sahna imkoniyatlari, ovoz va yorug'lik tizimlari hamda milliy musiqa merosini targ'ib eitish jarayonlari bilan mufassal tanishtirdi.

Ozarbayjonda O'zbekiston madaniyati kunlarining o'tkazilishi, ikki mamlakat san'at ustalari va ijodkorlari o'rtasida o'zaro hamkorlik yuksak darajada yo'lga qo'yilganini alohida ta'kidlab, *“Bizni yagona tarix, umumbashariy qadriyatlar va mushtarak madaniy ildizlar bog'lab turadi. Shunday ekan, bu aloqalarni bundan buyon ham kengaytirish, ijodiy hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish umumiy maqsadimizdir”* – deydi N.Sayfullayev.

Tomoshabinlarga Mug'om markazi ansambli va O'DSMI professor-o'qituvchilari ishtirokidagi konsert dasturi havola etildi. Uchrashuv davomida tomonlar kelgusida tajriba almashish, mahorat darslari, ijodiy konsertlar, ilmiy-amaliy seminarlar va talaba almashinuvi shaklidagi qo'shma tadbirlarni tashkillashtirish borasida o'zaro kelishuvga erishdilar. N.Sayfullayev mamnuniyat bilan Sahib Pashazadeni O'zbekiston davlat san'at va

madaniyat institutining “Faxriy professori” deya e'tirof etib, esdalik sovg'alarini taqdim etdi.

So'ngra, Ozarbayjon davlat akademik filarmoniyasi qoshida tashkil etilgan miliy ansambl faoliyati bilan ham tanishib, ijodiy tajriba almashish maqsadida mahorat darslari tashkil etildi. Bu jarayonda Beknazar Do'stmurodov, Soyibjon Niyozov, Ahmadjon Dadayev, Yusufjon Vohidov va Qahramon To'rayev, Husniddin Husanovlar ijrosida o'zbek xalq kuyi va ashulalari ijro etildi.

Ozarbayjonlik san'atkorlar tomonidan esa, Ayshen Mehdiyeva ijrosida “Bayati Sheroz tasniflari”, Huseyn Malikov ijrosida “Rost tasniflari”, o'zbek xalq ashulasi “Dilxiroj”ni Fuzuliy g'azali bilan ikki millat san'atkorlari o'zaro hamnafaslikda maromiga yetkazib ijro etdilar.

10-oktabr kuni Ozarbayjon davlat madaniyat va san'at universitetiga tashrif buyurdilar. Universitet rektori, professor Jeyran Mahmudova hamkasblarimizni universitet tarixi, ta'lim jarayoni xalqaro standartlar asosida tashkil etilganligi, “ustoz-shogird” an'analari samarali yo'lga qo'yilganligi, talabalarning ijodiy muhitda ta'lim olishi va mahoratini muntazam oshirishi uchun yetarlicha sharoitlar yaratilganligi bilan yaqindan tanishtirdi.

2025-yilning may oyida imzolangan memorandumga asosan N.Sayfullayev va J.Mahmudova ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasida do'stona hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash borasida o'zaro fikr almashdilar. N.Sayfullayev Ozarbayjonga bo'lgan tashrifini memorandumda belgilangan vazifalarning amaliy ifodasi sifatida qayd etib, O'zbekiston va Ozarbayjonning do'stlik-birodarlik rishtalari azaliy qadriyatlarga ega ekanligi, so'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohalarda bo'lgani kabi Ozarbayjon eli bilan ham madaniyat, san'at sohasida islohotlar izchil amalga oshirilayotgani, madaniy aloqalarning rivojlanayotgani ta'kidlandi.

Kunning ikkinchi yarmida hamkasblarimiz Ozarbayjon milliy konservatoriyasiga ham tashrif buyurdilar. Konservatoriya rektori, professor Kamila Husayn qizi Dadash-zoda mehmonlarni ta'lim muassasasida yaratilgan shart-sharoitlar, mavjud imkoniyatlar, ta'lim yo'nalishlari hamda o'quv jarayonining o'ziga xos jihatlari bilan batafsil tanishtirdi.

Ushbu ijodiy uchrashuvlar natijasi o'laroq, institut rahbari N.Sayfullayev tomonidan Xalqaro Mug'om markazi, Ozarbayjon davlat akademik filarmoniyasi, Musiqi madaniyati davlat muzeyi, Ozarbayjon davlat madaniyat va san'at universiteti hamda Ozarbayjon milliy konservatoriyasi rahbariyatlariga kelgusida o'zbekistonlik yosh san'atkor va talabalar uchun qo'shma konsertlar, ijodiy uchrashuvlarni tashkillashtirish taklifini bildirildi. Shuningdek, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahabariyati boshchiligidagi Ozarbayjon elining madaniyatiga bag'ishlab kino, teatr, raqs va musiqa san'atiga doir kitoblari, audio va video materiallar va sur'atlar bilan jihozlangan alohida “Ozarbayjon” xonasi tashkil etilganligi ham ikki millatning do'stlik rishtasi yanada mustahkam bo'lishiga qaratilganligidan dalolatdir.



davlat akademik filarmoniyasi, Musiqi madaniyati davlat muzeyi, Ozarbayjon davlat madaniyat va san'at universiteti hamda Ozarbayjon milliy konservatoriyasining mehmoni bo'lib qaytdilar. Ular 8-oktabr kuni dastlab Ozarbayjonning poytaxti Boku shahrining qadimiy maskani “Ichki shahar”i (“İçərişəhər”) bilan tanishdilar. Shaharchada qad ko'targan me'moriy yodgorliklar, qadimiy binolari va ozarbayjon xalqining o'tmishini eslatuvchi tor ko'chalar va amaliy san'at namunalari, gilam to'qish jarayonlari mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Shu kuni ozarbayjon xalq artisti, zamonaviy musiqa ta'limi asoschisi, Ozarbayjon xalq cholg'ulari orkestri va Ozarbayjon davlat xori tashkilotchisi hamda birinchilardan bo'lib, Ozarbayjonning milliy operasini mug'om asosida

## MADANIY TARAQQIYOTGA XIZMAT QILUVCHI MASKAN

◀ Boshlanishi 1- betda

Markaz faoliyatida innovatsion yondashuv va zamonaviy pedagogik texnologiyalar alohida o'rin tutadi. Pedagoglarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun interaktiv darslar, master-klasslar hamda zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quv jarayonlari tashkil etiladi. Shuningdek, markaz xalqaro miqyosda ham hamkorlik aloqalarini kengaytirib, dunyoning yetakchi san'at va madaniyat muassasalari bilan tajriba almashish imkoniyatlarini yaratmoqda. Bu esa, nafaqat o'zbek san'ati va madaniyatini rivojlantirishga, balki xalqaro maydonda munosib o'rin egallashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda markaz tomonidan

minglab pedagog kadrlar malaka oshirish kurslaridan muvaffaqiyatli o'tib, o'z bilim va ko'nikmalarini yangi bosqichga olib chiqishdi. Yaqin kelajakda esa, ushbu jarayonni yanada kengaytirish, yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda xalqaro loyihalar asosida o'quv jarayonini yanada takomillashtirish rejalashtirilgan.

Tarmoq markazida 12 ta yo'nalish bo'yicha tinglovchilar qabul qilinmoqda. Ular orasida aktyorlik san'ati, rejissyorlik, madaniyatshunoslik, xalq ijodiyoti, texnologen san'ati, san'atshunoslik, vokal san'ati, xoreografiya, cholg'u ijrochiligi, bastakorlik san'ati, dirijyorlik, kinoteleoperatorlik kabi yo'nalishlar mavjud.

Mashg'ulotlar tajribali professor-o'qituvchilar, san'at arboblari ishtirokida olib bo-

rilmoqda. Dars jarayonlari nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar, ko'chma mashg'ulotlar va ijodiy uchrashuvlar bilan boyitilgan.

Markazda o'tkaziladigan mahorat darslari, seminar-treninglar va ijodiy uchrashuvlar tinglovchilarning o'z sohasiga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi. Har bir o'quv kursi yakunida tinglovchilar malaka oshirish sertifikatiga ega bo'lishadi. Bu esa, ularning kasbiy o'sishida muhim qadamlardan biri sanaladi.

Tarmoq markazida asosiy e'tibor pedagoglarni o'qitish jarayonida, ularning shaxsiy yondashuvini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga undash va amaliy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan. Shu maqsadda kurslarga respublikaning turli hududlaridan

ABROR PORSOYEV,  
O'zDSMI huzuridagi Pedagog  
kadrlarni qayta tayyorlash  
va ularning malakasini  
oshirish Tarmoq markazi rahbari

malakali ustozlar, san'atkorlar va tajribali mutaxassislar jalb etiladi. Bugungi kunda Tarmoq markazi nafaqat o'quv jarayonini tashkil etuvchi muassasa, balki san'at va madaniyat sohasi vakillari uchun tajriba almashish, yangi g'oyalar va ijodiy tashabbuslar maydoniga ham aylanib bormoqda. Mazkur faoliyat natijasida mamlakatimizda madaniyat sohasi uchun zamonaviy bilim va ko'nikmaga ega, milliy qadriyatlarni asraydigan hamda yangicha fikrlaydigan pedagoglar avlodi shakllanmoqda.

Tarmoq markazi nafaqat ta'lim, balki butun jamiyatning madaniy taraqqiyotga xizmat qiluvchi muhim maskanlardan biriga aylanmoqda. San'at va madaniyatga sodiq pedagoglar uchun eng yaxshi imkoniyatlar aynan shu yerda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

# MILLIY MADANIYAT:

## o'tmishdan ibrat, bugundan g'urur, ertaga ishonch

Insoniyatning eng buyuk qadriyati – bu uning madaniyatidir. Madaniyat – xalq ruhining ko'zgusi, tarixning ovozi, millatning yuragidagi eng toza ohangdir. Zero, madaniyat tushunchasi har davrda yangi-cha shakl kasb etib, xalqning orzu, intilishlari, dardi va quvonchlarini ifodalab kelgan. Milliy madaniyatimiz bugun yangi bosqichda – o'tmishdan ibrat olib, bugundan faxrlanib, ertangi kunga ishonch bilan qadam tashlamoqda. Tarixga nazar solsak, O'zbekiston tuprog'i insoniyat sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lganini ko'ramiz.

Qadimiy Sug'd, Baqtriya, Xorazm madaniyatlari hamda Amir Temur va Temuriylar davri, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi allomalar xalqimiz tafakkurining beqiyos darajasini ko'rsatadilar. Bu meros nafaqat o'zbek xalqiga, balki jahon sivilizatsiyasiga ham ulkan hissa qo'shgan. XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati namoyandalari Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy va boshqalar o'zlarining ma'rifatparvarlik ishlari bilan madaniyat rivojiga katta hissa qo'shdilar. Ular turli gazeta va jurnallar chop etib, nashriyot va bosmaxonalar tashkil etdilar, kutubxonalar, teatrlar, yangi-cha maktablar ochdilar, o'tmish madaniyatimizni, tariximizni targ'ib qildilar, dunyoviy bilimlarni chuqur egalashga da'vat etdilar. Ma'rifatchilikning keng quloch yoyishi samarasi o'laroq, xalqning umummadaniyati yuksalib bordi...

Moddiy madaniy meroslarimiz, me'morlik durdonalari: Registon, Ichan qal'a, Shohi Zinda, Minorai Kalon, Ulug'bek madrasasi – nafaqat me'morlik yodgorliklari, balki xalq tafakkurining ramzlaridir. Ular asrlar osha o'zining jozibasini yo'qotmay, xalqimizning estetik qarashlari, e'tiqodi va badiiy didini ifodalab kelmoqda. Bu madaniy meros biz uchun faqat o'tmish xotirasi emas, balki ibrat maktabidir. Chunki, har bir qadimiy asar, milliy urf-odat, xalq qo'shig'i – bizga kimligimizni, qayerdan kelganimizni eslatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev *"Mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q"*, – deb ta'kidlagan. Biz ajdodlarimiz yaratgan boy madaniy merosni asrab-avaylash va uni yosh avlod qalbiga singdirish orqali, kelajakni mustahkamlashga muhim qadam tashlagan bo'lamiz. Darhaqiqat, ajdodlardan meros madaniyatni bilgan xalqgina o'z yo'lini to'g'ri tanlay oladi. Zotan, bugungi kunda O'zbekiston madaniy hayoti tub islohotlar davrini boshidan kechirmoqda.

Mamlakatimizda 2017-yildan buyon madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga oid davlat dasturlari qabul qililib, tizimli o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PF-4956-sonli va 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasini jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini oshirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PF-6000 sonli Farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi PQ-4038-sonli va 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-112-sonli qarorlari bu islohotlarning huquqiy asosi bo'ldi. Avvalo, milliy musiqa va san'at ta'limi so-



hasida tub burilishlar yuz berdi. Endilikda, har bir o'quv maskanida, har bir sinf xonasida milliy cholg'ular sadosi yangraydi. O'quvchilar dutor, gijjak, doira yoki nay sadosi ostida nafaqat kuy chalishni, balki o'z millatini, o'zligini, qadriyatini his qilishni chuqur o'rganmoqdalar.

Ta'lim muassasalari o'zbek xalqining boy madaniyatini yosh avlod qalbiga singdiruvchi zamonaviy metodik qo'llanmalar bilan ta'minlandi. Bugungi kunda, yurtimizda maktabni tugatib, katta hayotga qadam qo'yayotgan har bir yosh avlod kamida bitta milliy kuy chalishni biladi. Buning zamirida katta maqsad yotadi: madaniyatni xalq qalbiga, xalqni esa madaniyatga yaqinlashtirish. Bugun o'zbek kinosi, teatr, raqs, dizayn va moda san'ati xalqaro miqyosda e'tirof etilmoqda. Zero, madaniyat – bu nafaqat estetik qadriyat, balki madaniy diplomatiyani rivojlantiruvchi kuch hisoblanadi. Madaniy diplomatiya esa, zamonaviy tashqi siyosatning yangi ko'prigidir. Shuning uchun ham, yurtimizda madaniyat sohasiga yuksak e'tibor qaratilgan. U xalqni birlashtiruvchi, milliy g'ururni oshiruvchi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy birdamlikni ta'minlovchi asosiy omilga aylangan.

Bugungi globallashuv davrida davlatlar o'rtasidagi munosabat faqat siyosiy yoki iqtisodiy doiralarda emas, balki qalblarni birlashtiruvchi kuch ham madaniyat orqali shakllanmoqda. Madaniy diplomatiya – bu so'zsiz til, u millatlarning yuragidan joy olgan qadriyatlarni, urf-odatlarini, san'at va ijod nafosatini dunyo sahnasiga olib chiqadi. Jumladan, 2025-yilning 23-27-may kunlari Fransiyada "O'zbekiston madaniyat kunlari" bo'lib o'tdi. Mazkur tadbir davomida Parij shahridagi De La Ville teatrida Jonibek Piyazov va Ingigul Shourova tomoshabinlarga Qoraqalpoq kuylarini milliy cholg'uda chalgan bo'lsa, xuddi o'sha zalda Orol dengizi bo'yicha maxsus film ham namoyish etildi. Ilm va san'at uyg'un bo'lgan bu jarayonda tinglovchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga san'atkorlarimizdan javob olishdi. Dasturning kulminatsion qismi xalqimiz ardog'idagi san'atkorlar O'zbekiston xalq artisti Og'abek Sobirov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Nodira Pirmatova hamda Yulduz Turdiyeva tomonidan Farg'ona-Toshkent, Xorazm, Buxoro maqomlarini jonli jarangladi.

2025-yil yurtimizning go'zal va betakror madaniyati, qadriyatlari dunyodagi jamiki insonlarning qalblariga yetib bordi. So'zimizning isboti sifatida aytishimiz mumkin, joriy yilning 21-22-iyun kunlari Buyuk Britaniyaning London shahrida mashhur "Tower Bridge" etagidagi "Potters Field Park" hiyobonida festival bo'lib o'tdi. Park maydonida milliy qo'shiqlar sadolari yangradi, "Lazgi" raqsining o'tkir qadamlari esa, London osmonga ko'tarilgan qadimiy minoralar soyasida jarang soldi. Bu shunchaki festival emas, balki qalblarni bog'lovchi madaniyatlar bayrami edi. "O'zbekiston madaniyati va milliy taomlari" festivali yurtimizning xalqaro nufuzini yanada yuksaltirdi, ikki mamlakat

**MO'MINMIRZO XOLMO'MINOV,**  
O'ZDSMI Xalq ijodiyoti fakulteti  
Yoshlar bilan ishlash bo'yicha  
dekan o'rinbosari,  
**NAIMA BOYQOBILOVA,**  
Madaniyat va san'at sohasi  
menejmenti 2-bosqich magistiranti

o'rtasidagi madaniy almashinuvga mustahkam ko'priklar bo'ldi.

Bugun jahon hamjamiyatida yurtimizning madaniyati va san'atiga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda. Joriy yilning 29-30-may kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida o'tkazilgan "Rossiya madaniyati kunlari" tadbirlari bilan bir qatorda Poytaxtimizdagi "O'zbekiston" forumlar saroyida O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning Madaniyat bo'yicha quyi komissiyasining beshinchi majlisi davomida, O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov Rossiya Federatsiyasining "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi. Bu voqea nafaqat san'at fidoyisiga berilgan yuksak ehtirom, balki O'zbekiston madaniyatiga bo'lgan chuqur hurmat va e'tibor ramzidir. Bugun xalqaro miqyosda O'zbekiston madaniy diplomatiyasi nafaqat san'at, balki tinchlik, do'stlik va ma'naviyat elchisi sifatida tanilmoqda.

2025-yil 2–11-oktabr kunlari Saudiya Arabistoni Podsholigida o'tkazilayotgan "O'zbekiston madaniyati kunlari" nafaqat san'at bayrami, balki xalqlar o'rtasidagi samimiy do'stlik, o'zaro hurmat va hamjihatlik ramziga aylandi. Tadbir Ar-Riyod shahrining nufuzli maydonlari – Riyadh International Book Fair majmuasi hamda Malika Nurah Bint Abdulrahmon universitetida o'tkazilayotgani uning xalqaro miqyosdagi nufuzini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'zbekistonning tashqi siyosatida "madaniy diplomatiya" tamoyili tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Dunyo sahnasida O'zbekiston nomini sharaf bilan yangratayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, "Maqom" anjumani, "Lazgi" xalqaro raqs festivali kabi nufuzli tadbirlar bunga yorqin misoldir. Ushbu festival va anjumanlarda saudiyalik madaniyat vakillarining faol ishtiroki, ikki xalq o'rtasidagi o'zaro hurmat va do'stlikni mustahkamlab, madaniyatlarni aloqalarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Madaniyatimiz – xalq diplomatiyasining eng go'zal tili, yurakdan chiqib, yuraklarga yetib boradigan elchidir. Milliy madaniyat, qadriyatlarni asrab-avaylash va dunyoga tanitish, har bir vatandoshning yuragida g'urur bilan olib yuradigan sharaflilik burchidir.

Bugungi yosh avlod – ertangi kun egalari. Shu bois, milliy madaniyatni rivojlantirishda eng muhim vazifa qadriyatlarni yoshlar qalbiga singdirish. Zero, madaniyatni asrab qolish nafaqat yodgorliklarni saqlash, balki ruhni, milliy o'zlikni, qadriyatni saqlashdir. O'zbekiston yoshlarining 60 foizdan ortig'i 30 yoshgacha bo'lgan avlodlar. Ular uchun milliy identitet, madaniy meros va xalq san'ati orqali, o'zligini anglash manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat", – degan g'oya bejiz emas. Chunki, bu kelajakni belgilovchi eng kuchli omil va qudrat madaniyatning barqaror rivojidir. Yurtimizda milliy liboslar, urf-odatlar, xalq bayramlariga bo'lgan qiziqish ortmoqda. "Navro'z", "Mustaqillik kuni", "Mehnat festivali", "Hunarmandlar haftaligi", "Milliy liboslar kuni" kabi tadbirlar nafaqat madaniyatni ommalashtiradi, balki xalq birligini mustahkamlaydi.

Bugungi ishonch – bu ertangi barqarorlikdir. Shu bois, davlat darajasida ham madaniyat sohasiga raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, virtual meros muzeylari singari zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda. Madaniyat taraqqiyoti millat taraqqiyoti demakdir. Agar xalq o'z madaniyatini yo'qotsa, u o'zligini yo'qotadi. Darhaqiqat, bugungi ishonchimizning ildizi o'tmishdagi ibrat, hozirgi g'urur va ertangi avlodning orzusi bilan bog'liqdir. Milliy madaniyat – bu xalqning ma'naviy yuragi. Uni rivojlantirish, qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamon ruhiga moslashtirish nafaqat madaniyat xodimlarining, balki har bir fuqaroning burchidir. Bugun biz o'tmishdan ibrat olib, bugundan faxrlanib, ertangi kunga ishonch bilan qarayapmiz. Chunki xalqimizda madaniyatga muhabbat, qadriyatlarga hurmat, kelajakka ishonch bor.



**MARJONAXON XOLTOYEVA,**  
San'at jurnalistikasi  
ta'lim yo'nalishi  
1-bosqich talabasi

## Alisher Navoiy

Qorong'i qoplagan xonam yuzini,  
Oymomo nurlari tushadi xira.  
Yopiq derazamni chertar shabboda,  
Men esa e'tibor bermayman sira.

Qalbim gulbog'ida g'alayon yana,  
Katta bir xonada topganim qog'oz.  
Oppoq shu'lalarga talpinar yurak,  
O'ylarim aytadi: "Go'zal she'rlar yoz".

Atrofga boqaman alanglab hayron,  
Ammo g'azallari dilni aylar rom.  
Samoda yulduzlar guldasta bo'lib,  
Hazrat Navoiydan keltirar ilhom.



**GULSANAM SHODIYEVA,**  
Kutubxona-  
axborot faoliyati  
ta'lim yo'nalishi  
1-bosqich talabasi



**ELYOR NAZAROV,**  
"Madaniyat va san'at muassasalarini  
tashkil etish hamda boshqarish"  
ta'lim yo'nalishi (sirtqi)  
4-bosqich talabasi

## "Chidamas"

Davri o'tgay har narsaning,  
Xazon to'ksa, bog' chidamas,  
Bu dunyoning ishlariga,  
Telba tugul, sog' chidamas.

Deysan: hayot shunday safo,  
Ayt kimlarga qilgan vafo?  
Dard yuborsa gar bedavo,  
Gado mayli, shoh chidamas.

Ishq o'lchanmas qiymat bilan,  
Mehr tengdir, ziynat bilan,  
Davlat topgin mehnat bilan,  
Yotib yesang, tog' chidamas.

Sevgan ko'ngil qolib tursa,  
Oshiq ahddan tonib tursa,  
Tildan zahar tomib tursa,  
Bulbul yig'lar, zog' chidamas.

Qilib g'iybat, mish-mishlarin,  
Chayondek sanchar nishlarin,  
Ba'zilarining qilmishlarin,  
Eshitgan quloq chidamas.

Nogoh yurtni bosganda yov,  
Johil millat bo'lolmas g'ov,  
O'z xalqini sotar darrov,  
Tashvishga, qo'rqq chidamas.

Go'zallikni etib yakson,  
Buncha shafqatsizdir inson,  
Yovuzlikdan qular osmon,  
Yer titrar, tuproq chidamas.

O'tkinchidir, boy-u zor ham,  
Qiyomatda topgay barham,  
Siz maqtagan, tillo zar ham,  
Ko'nglimdan ko'proq chidamas.



## Ona tilim

Bulbul ham navosiz bulbul emasdir,  
Yaproq ham g'unchasiz bir gul emasdir,  
Nomingni tan oldi bugun keng jahon,  
Madhing kuylagayman ey ona tilim.



**NARGIZA SHODMONOVA,**  
"Madaniyat va san'at  
muassasalarini tashkil etish  
hamda boshqarish"  
ta'lim yo'nalishi  
4-bosqich talabasi

## Kitoblardan izlagan sevgim

Vaqtlar o'tib, balki kelarsan,  
Shamol bo'lib sochim silarsan,  
Olislardan baxtim tilarsan,  
Kitoblardan izlagan sevgim.

Buyruq berib bo'lmas yurakka,  
Aylangansan shirin tilakka,  
Vafo qilgin mendek malakka,  
Kitoblardan izlagan sevgim.

Har kun tinmay yo'ling kutaman,  
Ertaklarga parvoz etaman,  
Qalam olib she'rlar bitaman,  
Kitoblardan izlagan sevgim.

Tunda oyga aytib dardimni,  
Yuvay deyman dildan gardimni,  
Topolmayman sendek mardimni,  
Kitoblardan izlagan sevgim.

Bir kun kelib baxtli etarsan,  
Sen majnunga o'hshab ketarsan,  
Menga qizil gullar tutarsan,  
Kitoblardan izlagan sevgim.

Boladekman hali beg'ubor,  
Yo'llaringni kutib, intizor,  
Kelsang aytar ko'p gaplarim bor,  
Kitoblardan izlagan sevgim.



Sen sabab kuylagan kuyim jo'shqindir,  
Senga muhabbatim tengsiz toshqindir,  
Nomingni tan oldi bugun keng jahon,  
Jahon sahnasida yangra har zamon.

Navoiy navosi yerni tutgan kun,  
Xalqimiz chin dildan istab kutgan kun,  
Erishding haqiqiy hurlikka bugun,  
Hurliging muborak ey ona tilim!

# TONG YULDUZINING ZULMATGA ISYONI

Tarixdan ma'lumki, biz bugungi kunga kelib, 3000 yillik davlatchilik tariximizga egamiz. Bugun bizning asrlar davomida shakllanib kelgan madaniyatimiz, qadriyat va urf-odatlarimiz bo'lishi kerak edi, ammo tarixning shafqatsiz shamollari ularning juda ko'pini tarix sahnasidan uchirib ketdi.

Ta'kidlash joizki, 3000 yillik tariximizning 860 yilini quyidagi istilochilar qo'l ostida o'tkazdik. 200 yil Eron Ahamoniylariga, 180 yil Yunonlarga (Aleksandr Make-donskiy), 200 yil Arablarga, 150 yil Mo'g'ullarga, 130 yil Rus istilosi va kommunistik mafkuraga qaram bo'ldik. Bu istilochilarning har biri yurtimizni madh etgandan so'ng o'zlarining dini, madaniyati, urf-odatlari va qonun-qoidalarini joriy etishga harakat qilib, o'z siyosatini amalga oshirishgan. Buning natijasida, oldingi madaniyat va qadriyatlar asta-sekinlik bilan yo'qolib boravergan. Tariximiz va madaniyatimizdan so'zlovchi ko'plab tarixiy, yozma manbalar yoqib yuborilgan, qolganlari esa, o'zga yurtlarga tashib ketilgan. Aynan shunday istilolar sabab avlodlar davrida madaniyat, qadriyat va urf-odatlarimiz yetib kelmadi. Bu esa, millatning eng katta fojearlaridan biridir.

Mustamlakachilik siyosati oqibatida qadriyatlarimiz va dinimizga nisbatan bir qancha qarshilik va to'siqlar qo'yilgan bir davrda jadid ziyolilarining eng oliy maqsadlari – milliyligimiz va qadriyatlarimizni saqlab qolgan holda ozodlikka erishish edi. Har bir inson uchun eng oliy qadriyat, avvalo, yashashdir. Undan keyin esa sog'lik, tinchlik va ozodlik eng ulug' qadriyatlar sifatida namoyon bo'ladi. Jadid ma'rifatparvarlari ozodlik uchun juda ko'p kurashdilar va o'zlarining asarlarida doimo ozodlik va erkinlikni madh etdilar. Istiqbol uchun muttasil kurashgan millat gullaridan biri shoir Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon edi. Zero, Cho'lponning o'zi aytganidek: "Millatni uyg'otish uyg'onganlarning vazifasi". Cho'lpon lirikasidagi ozodlik, vatanparvarlik va birlik mavzulari haqida quyida keltirilgan.

Cho'lponning "To'fon" nomli she'rida shoir mustamlakachi hukumatning yashirin va asl maqsadini to'liq anglab yetganini ko'rishimiz mumkin:

**Bilamiz, kim "madaniyat" beshigida o'lturgan  
Jallodlarning butun ta'ma va hislari sizlarda.**

**Bilamiz, kim "ozodlik" deb shovqin qilgan, baqirgan  
Bo'rilarning och ko'zlari, oltin to'la yerlarda.**

Boshini zo'r ishga berib qo'ygan shoir Cho'lpon "Kurash" nomli bir she'rida ozodlik uchun o'zining kurashini shunday ta'riflaydi:

**Ulug', qattiq ag'darguvchi bir kurash,  
Yo bor bo'lish, yo yo'q bo'lish:  
– Yo'q yarash!..**



Yuqoridagi misralardan anglashimiz mumkinki, qalami o'tkir shoir o'z davri nohaqliklariga qarshi murosasiz kurashgan shoirlardan biri edi. Bu kurashda shoir yo yengadi, yo halok bo'ladi, ammo "madaniyatli dushman" bilan murosasiz qilishni xohlamaydi.

1937-yilda shoir qamoqqa olingandan so'ng, avvalo, uning ijodiy merosi yo'qotildi, asarlarini o'qishga taqiq qo'yildi. Bu davrda hattoki, ko'plab insonlar Cho'lpon asarlarini o'qigan, saqlagan va targ'ib qilganlikda ayblanib, qamaldilar. Uning ijodiga bo'lgan taqiqlar 50-yillarda shoir "fuqoro sifatida" oqlangandan keyin ham yo'qolmadi. Nima sababdan istilochilar hukumati Cho'lponning ijodiga bunday qattiq taqiq qo'yishgandi? Sabab shuki, ular shoir asarlaridan qo'rqishgan. Uning ozodlikka, hurlikka chaqiruvchi she'rlari va xalqni uyg'otuvchi ko'plab asarlari istilochilar uchun xavfli edi...

"Uyg'on, – dedim, – to'lg'on, – dedim, – ey Sharq, zanjirlarni uzish vaqti keldi" – deya o'zining "Tong"

she'rida xalqini ham ruhiy, ham jismoniy ozodlikka chorlagan shoir Cho'lpon doim millat tashvishi va dardi bilan yashadi. U 1921-yilda yozilgan "Tilak yo'lida" nomli she'rida shunday yozadi:

**Ketgan yo'lim to'g'ri yo'ldir, ketaman,  
Qanday to'siq mone bo'lsa, o'taman:  
Men ketaman, tilak deya ketaman,  
Hech tilaksiz quruq tanni netaman?**

Cho'lponning tilagi nima edi? Yurti mustaqilligi, xalqi ozodligi va jamiyati taraqqiy etib, johiliyatdan chiqishi emasmidi?! Albatta, shunday. Shoir o'z yo'lida sobit ekanligini ta'kidlab, bu yo'lida qanday to'siq bo'lsa ham yengib o'tishini aytadi. Agar, qalbida bu kabi ezgu tilak va maqsadlar bo'lmasa, unday quruq tan unga kerak emasligini yozadi. Shoir she'rni bu ezgu tilak yo'lida jonini ham qurbon etishini ta'kidlab tamomlaydi:

**Yana "tilak, tilak" deya ketarman,  
Bir jon ekan, mayli, qurbon etarman!..**

Vatanparvar Cho'lpon yana bir "Yupanmoq istagi" she'rida esa, o'z yurti o'g'lonlarini ozodlik uchun kurashga da'vat etadi:

**O'ylangan o'ylar-la ko'ngil yupanmas,  
Ko'ngilning istagi o'y bilan qonmas,  
Aytarlar: "Bu tunda yorug' sham yonmas,  
Chaqmasa gugurtni asl o'g'lonlar..."**

"Tarixdan" she'rida shoirmi bir savol qiyaydi: nega ular o'z yurtida ozod qul? Nega ayon bo'lgan to'g'ri yo'l ko'rsatilmay va yoki to'g'ri yo'l ko'rsatganlarga ham tinchlik berilmas?

Cho'lpon o'zining isyonkor she'riyati va vatanparvarlikka to'yingan faoliyati bilan har birimizning qonimizda yashaydi. Uning ijodiy merosi tiklanishi faqatgina 1987-yilda adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov "Yoshlik" jurnalida shoirning turkum she'rlarini e'lon qilishi bilan boshlandi. Shundan so'ng "Sharq yulduzi" jurnalida Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani to'liq holatda bosildi. 1989-yilda esa, Ibrohim Haqqul tomonidan Cho'lponning sara she'rlari yig'ilib, "Bahorni sog'indim" nomi bilan to'plam holda nashr etildi.

Cho'lpon butun umri davomida o'z g'oyalari va maqsadlari yo'lida shahdam qadam bosdi. Uning har bir qadami istilochilarni larzaga solgan, desak mubolag'a bo'lmas. Millatni g'aflat uyqusidan uyg'otish yo'lida jonini ham ayamagan shoir bugun har bir millatdoshining qalbida tong yulduzi kabi porlamoqda. Ozodlikning buyuk ne'mat ekanligini his qilgan holda, millat va yurt kelajagi uchun munosib hissa qo'shmog'imiz va Cho'lpon kabi otash yurakli ajdodlarimizga munosib avlod bo'mog'imiz kerak.

## KUTUBXONACHI –

## ma'naviyat targ'ibotchisi

**XILOLA RAXMONOVA,  
Kutubxona-axborot  
faoliyati(sirtqi)  
ta'lim yo'nalishi  
4-bosqich talabasi**

Ustoz va murabbiylar kuni yurtimizda keng nishonlanadigan muhim sana hisoblanadi. Bu bayram xalqimizning ustozlarga bo'lgan yuksak hurmat va ehtiromining yaqqol ifodasidir. Ana shunday ehtiromga sazovor insonlar safida ko'p hollarda e'tibordan chetda qolib ketadigan, ammo yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutuvchi kutubxonachilar ham munosib o'rin egallaydi.

Kutubxonachi – bu nafaqat kitob saqlovchisi, balki bilimga yetaklovchi, yosh avlodga yo'l ko'rsatuvchi, ma'naviyat targ'ibotchisidir. Ularning kundalik faoliyati o'quvchi-yoshlarni kitobga oshno qilish, ularning tafakkurini yuksaltirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Axborot-resurs markazlari, ta'lim muassasalari hamda mahalla fuqarolar yig'ini qoshida faoliyat yuritayotgan kutubxonalar – yoshlarning intellektual va ma'naviy kamolotida beqiyos o'rin tutadi. Bu maskanlarda faoliyat olib borayotgan kutubxonachilar o'z kasbiga sadoqat, kitobga muhabbat va

bilimga hurmat ruhida xizmat qilmoqdalar.

Kutubxonachilarning asosiy vazifasi yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, bilimli va kitobxon qilib tarbiyalashdan iboratdir. Ular kitobxonlarga zarur adabiyotlarni tanlab berish, o'qish madaniyatini shakllantirish, shuningdek, kitobxonlik faoliyatini tashkil etishda ko'plab ijodiy tashabbuslarni amalga oshirib kelmoqdalar. Ayniqsa, bugungi globalashuv davrida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda kutubxonachilarning o'rni yanada muhimdir.

Zero, inson kamolotiga hissa qo'shayotgan har bir fidoyi kutub-

xonachilar ayrim hollarda yoshlar qalbida yo'qolgan umid va ilhomni qayta uyg'otadilar. Kutubxonachi – nafaqat kitob tarqatuvchi, balki ruhshunos, maslahatgo'y va do'st hamdir. Ular orqali minglab kitoblar insonlar qalbiga yo'l topadi, ilmga chanqoqlik ortadi, tafakkur kengayadi. Yurtimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, yoshlar qalbida ilmga, mutolaaga bo'lgan mehrni oshirish yo'lida fidoyilik va sabr-toqat bilan xizmat qilayotgan barcha kutubxonachilarga chuqur minnatdorlik bildirgan holda yuksak e'tirof va bardavom muvaffaqiyatlar tilaymiz.



# ODAMIYLIK SARI YO'L

Yangi o'quv yilidagi ilk mashg'ulotlar boshlangan pallada, endigina birinchi bosqichga qadam qo'ygan talabalar o'zlarini san'at ahli sanab, yigit-qizlar institut hududida girdikapalak, shovqin esa avjida. Kimdir o'zi yoqtirgan musiqasini baland ovozda tinglaydi, yana kimdir ijod qilishim kerak, deya gitara, tanbur, doirasini ena uyiga to'y kelganday chala ketadi. Xullas, bu "madaniyat"lilar instituti...

Kun yorisha boshlaganini ko'rib shosha-pisha o'rnimdan turdim, yelkam osha sochiqni tashlab, yuz-qo'limni yuvishga chiqdim. Yotoqxonadagi talabalarning aksari noz uyquda, hozir kimdir kirsam ham bilmas darajada dong qotishgan edi.

Bobom rahmatli, "erta turganning ishi yurishadi, yeyishingda, ichishingda, yashashingda baraka bo'ladi bolam", degan gaplari doim yodimda bo'lgani uchun barvaqt turish menga odat. Bobom bilan o'tgan paytlarim yodimga tushaveradi. "Ilm yo'lidan ketganing yaxshi, sen o'qishing kerak, bolam. O'qigan kam bo'lmaydi", – deb ta'kidlar edi bobom. Shuning uchun ham, ushbu nasihatlariga amal qilib, qishloqda qolgan do'stlarim, yaqinlarim, ota-onam, mehribon enamning orzulari uchun ham o'qishim, yaxshi natijalarga erishishim kerak.

Yotoqxona derazasini ochdim. Yuqoridan butun shaharning tonggi sokinligi, mayin esayotgan shabadaning shivirlari bilan ko'nglimga yorug'lik



berdi. Tongdan bobomning pok ruhi uchun duo qildim. So'ng hali darsga vaqt borligi uchun kecha chala qolgan Fitratning "Abdulfayzxon" dramasi olib o'qishga kirishdim. Kunlar, haftalar mana shunday tig'iz o'ta boshladi. Harakatlarim bilan birinchi kursni tugatmasdan ilk kitobim "Tong yulduzi" nashrdan chiqdi. Quvonchimni ko'ring endi! Do'stlarim, kursdosh yaqinlarim shod, ulardan ham ota-onam, mehribon enaginam juda sevingan. Go'yo o'zimni yettinchi osmonda his qilyapman. Axir, men endi yozuvchiman-da! Ammo bu sevinch ko'nglimdagi bir armonning simillab turganini yodimga soldi. Qaniydi, shu kunlarni bobom ham ko'rsaydi.

Oxirgi paytlar bobomni ko'p o'ylayapman. Demak,

**IZZATILLO OLIMOV,**  
Kutubxona-axborot  
faoliyati ta'lim yo'nalishi  
4-bosqich talabasi

sog'inibman. Kitob taqdimotidan keyin lash-lushlarimni yig'ishtirdim-da qishloqqa yo'l oldim. Birinchi borgan joyim qishloq yaqinidagi qabriston bo'ldi, Darvoza oldiga yelkamdani sumkalarni bir-bir tashladim-u, qabrlar oralab yurib ketdim. Maydalar yomg'ir yog'ar, ko'z-yoshim yomg'ir bilan go'yo bahs etardi...

Bobom menga nasihatlar qilishini, kechalari yoniga olib samo, yulduzlarining chin mo'jiza ekanligi haqida hikoyalar aytib berganlarini o'kina-o'kina esladim. Nazarimda mana shular haqiqiy baxt edi. Hozir ham baxtlimanmi? Bilmadim, balki shundaydir. Ammo ularsiz hayotimda kemptiklik borligini hamma vaqt his qilib turaman.

Uyga kirarkanman, enamdan:

– Ena, bobom hayotlik chog'ida menga talabalikda to'plagan kitoblaring bor, degandi, o'shalar qayerda?

– Ha, bolam! Bobom juda ko'p sara kitoblarni to'plagandi, ular orasida qimmatli bo'lgan noyob kitoblar ham bor. Ana chorbog'dagi sandiqda turibdi. Narvon bilan chiqsang topasan, – dedi.

Chorbog' tomon shoshildim, haqiqatdan ham sara-sara kitoblar sandiq ichida yoyilganicha chang bosib yotar, changini barmoqlarim bilan tozalagan bo'ldim. Chindan ham kitoblar orasida juda qadimiy kitoblar bor edi.

Shaharga otlar ekanman, yuragimdagi sog'inch tafti sal bosilgandek bo'ldi. Bu taft meni kelajakda bobom istaganidek olim bo'lish maqsadi yo'limni, ko'nglimni yoritib turardi.

2020-2021-yillarda butun dunyoni larzaga solgan koronavirus pandemiyasi insoniyat hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatdi. Bu global inqiroz nafaqat tibbiyot sohasiga, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy qatlamlarida ham jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Ushbu davr xotiralari san'at va adabiyotda o'z aksini topa boshladi. O'zbekistonlik yosh rejissyor Abutolib Adamqulov tomonidan suratga olingan "Pandemiya" filmi aynan shu murakkab davr voqealarini ekran yuziga olib chiqadi.



## filmi – O'zbekistonda

Filmning premyerasi 2024-yil 10-sentyabr kuni Milliy kino san'ati saroyida bo'lib o'tdi. Premjera oldidan tomoshabinlar pandemiya sharoitini his qilishlari uchun maxsus atmosfera yaratildi. Lekin bu interaktiv tajriba tomoshabinlarning kutilgan reaksiyasini uyg'ota olmadi. Film voqealari O'zbekistonda ilk koronavirus bemorining aniqlanishi bilan boshlanadi. Kasallikka chalingan shaxs – Fransiyadan qaytgan 24 yoshli qiz. Bu holat mamlakat bo'ylab favqulodda holat e'lon qilinishiga sabab bo'ladi. Film davomida hukumat qarorlari, karantin choralari va tibbiyot xodimlarining fidoyiligi tasvirlanadi.

Filmda pandemiya davrida tibbiyot xodimlari qanday qiyinchiliklarga duch kelgani, oilalar ajralib qolgan holatlar, hayot va o'lim orasidagi kurash kabi mavzular aks ettirilgan. Xususan, bir shi-

fokor karantin cheklovlari tufayli o'z oilasidan uzoqda qolib, faqat bemorlarni davolash bilan shug'ullanishga majbur bo'ladi. Filmning kulminatsion nuqtasida, pandemiya tufayli yaqinlaridan ayrilgan insonlarning dardlari va jamiyatning ushbu qiyinchiliklarni yengib o'tish yo'llari ko'rsatiladi. Filmda asosiy urg'u shifokorlar va hamshiralarning jasorati va jonkuyarliligiga qaratilgan.

O'zbekiston va butun dunyodagi tibbiyot xodimlari o'z hayotlarini xavf ostiga qo'yib, bemorlarni davolashga harakat qiladilar. Filmda shifokorlarning hissiyotlari, charchoq, ruhiy bosim va ular duch kelgan muammolar chuqur ochib berilgan. Pandemiya faqat kasallik emas, balki inson ruhiyatiga ham jiddiy ta'sir

ko'rsatgan davr bo'ldi. Mazkur filmda odamlarning yolg'izlik, ishsizlik, ta'lim jarayonining to'xtab qolishi kabi muammolar aks ettiriladi. O'zaro ishonch, hamjihatlik va qo'llab-quvvatlashning muhimligi ko'rsatilgan. Oilaviy rishtalar pandemiya sharoitida qanday sinovdan o'tganini ko'rish mumkin. Karantin sabab yaqinlaridan ajralgan insonlar, o'z uyidan uzoqda qolgan shifokorlar va jamiyat birdamligining kuchi filmning markaziy g'oyalaridan biri hisoblanadi.

Film operatorlari pandemiya atmosferasini aks ettirish uchun xira ranglar, qisman qorong'i fon va sterillikni ifodalovchi oq ranglardan keng foydalanagan. Shaharlar bo'm-bo'sh, odamlar esa niqob ostida – bu detallar real hayotdagi

**ALIBEK ISMOILOV,**  
San'at jurnalistikasi  
ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich talabasi

pandemiya davri bilan o'zaro uyg'unlashadi. Ushbu filmga mos saundtrekda, pandemiya paytidagi yolg'izlikni aks ettiruvchi sokin musiqa ishlatilgan. Shifoxonalar, shoshilinch yordam chaqiriqlari, yo'llardagi sukunat, bularning barchasi umumiy atmosferaga ta'sir qiluvchi elementlardir. Aktyorlarning rolda tabiiylik ustuvor bo'lib, ular pandemiyaning og'ir sharoitida yashagan oddiy odamlarning kechinmalarini chuqur aks ettirishga muvaffaq bo'lishgan. Ayniqsa, bosh rollarni ijro etgan Matyoqub Matchonov hamda Aysanem Yusupova o'z qahramonlarining ruhiy holatini mahorat bilan yetkazib bera olganlar.

"Pandemiya" filmi O'zbekiston kinosida pandemiya mavzusini yoritgan muhim film hisoblanadi. U faqatgina koronavirus davrini eslatib turuvchi film emas, balki inson hayotining eng qiyin pallalarida ham umidni yo'qotmaslik, birdamlik va insonparvarlik qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi. Zero, film pandemiya davrida qahramonlik ko'rsatgan shifokorlar, oddiy fuqarolar va butun jamiyatning boshidan o'tgan sinovlarga oid tarixiy hujjat sifatida qabul qilinishi mumkin. Abutolib Adamqulovning rejissyorlik mahorati, aktyorlarning kuchli ijrosi va filmning hissiy ta'siri, O'zbekistondagi zamonaviy kino san'ati namunalariidan biriga aylantiradi.

### Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Baxtiyor YAKUBOV



Tahrir hay'ati:

Hamdam ISMOILOV,  
Oybek DAVLATOV

Muharrir:

Dilnoza QURBONOVA

Sahifalovchi:

Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,

Mirzo Ulug'bek tumani,  
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03.  
(71) 230-28-13.

www.dsml.uz;  
nashriyot@dsml.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.  
Gazeta 30.10.2025-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166  
raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda